

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

OBJEKTЛАRNING OBRAZLI NOMLANISHLARIGA XOS BO‘LGAN ONOMASTIK-DERIVATSION JIHALARIDA JAMOAVIY IJODIYLIK

Nodirjon Qurbonov,
TATU Farg‘ona filiali kengashi kotibi
+99891 326 11 98
nodir22@yandex.ru

***Annotatsiya.** Ushbu tezisdagi o‘zbek va ingliz tillaridagi obrazli nomlanishlarning yuzaga kelishida jamoa ishtirokida nomning shakllanishi, uning ijod darajasiga yetishi, nomlarning metaforikligi va metonimikligi nomlovchilarning ijodi namunasi, obyektga bo‘lgan munosabati mahsuli sifatida nomlash jarayoni muhokama qilingan.*

***Kalit so‘zlar.** Obraz, obrazli nomlanishlar, ong, obyekt, topoobyekt, ijod, tasvir, affiksoid.*

***Аннотация.** В данной тезисе рассматривается формирование названия с участием коллектива, возникновение образных названия в узбекском и английском языках, его развитие до уровня творчества, метафорические и метонимические названия, как образ творчество номинаторов, процесс наименования как результат отношения номинатора к объекту.*

***Ключевые слова.** Образ, образные названия, сознание, объект, топообъект, творчество, картина, аффиксoid.*

***Annotation.** This thesis discusses the formation of a name with the participation of a team, the formation of figurative names in the Uzbek and English languages, its development to the level of creativity, metaphorical and metonymic names as an example of the creativity of nominators, the naming process as a result of the attitude of the nominator to the object.*

***Keywords.** Image, figurative names, consciousness, object, topoobject, creativity, picture, affixoid.*

Jahonda obrazli nomlanishlar, obrazli ifodalar va obrazli ma’nolarni tadqiq etishga qiziqish ortib bormoqda. Jumladan, MDH davlatlarida tadqiqotchilar Irina Kondakova [Kondakova I. A., 2004], Mariya Rut [Rut M. E., 1994], xorijiy tadqiqotchilardan Rachael Louise Hamilton [Rachel, 2016], Eugene Stock McCartne [McCartne, 1912] o‘zlarining tadqiqot ishlarida aks ettirdilar.

Obrazli nomlanishlar nafaqat kishilarning ongiga, balki ular emotsionalligi bilan his-tuyg‘uga ham ta’sir etadi. Tushunarliroq izohlaydigan bo‘lsak, “obrazli ifoda – narsa, hodisa va insonning muayyan vaziyatdagi holati va o‘ziga xos xususiyatini yaqqol tasavvur etishga imkon beradigan shoirona ibora” [Homidiy H., 1970: 138]. Obraz tushunchasi nutqning o‘ziga xos badiiy shakli bo‘lib, u nomlovchining ijodi mahsuli, uning ongida shakllangan tasvirdir. Obrazli ma’noning ifodalanishi yorqin manzara yoki xarakterlardir, obrazlilik esa nomlash san’atining o‘ziga xos xususiyatidir. Obyektlarning obrazli nomlanishlarida biror obyektning ichki yoki tashqi xususiyatlari faol rol o‘ynaydi. Obrazlilikda topoobyekt haqida yaqqol

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

tasavvur hosil qilish, ana shu obyekt haqida ma’lumot yetkazish birlamchi bo‘lib, bunday obrazli nomlanishlar informativ xususiyatga ega hisoblanadi.

Ijod – faoliyat jarayoni, natijada sifat jihatidan yangi obyektlar va ma’naviy qadriyatlar yaratilishi yoki obyektiv ravishda yangilanish natijasidir. Ijodkorlikda ajratib turadigan asosiy mezon – bu uning natijalarining o‘ziga xosligi. Ijodiyotda nafaqat natija, balki uning o‘zi ham qadrlidir. Ijodiy faoliyat – inson yoki jamoaviy faoliyat shakli, ilgari mavjud bo‘lmagan ammo sifat tomonidan yangicha qarash tushuniladi [Sharafutdinova R., 2023]. Jamoaviy ijodiylik – jamoa tomonidan murakkab vaziyatlarda birgalikda muammolar yechimini topish hisoblanadi. Obyektlarning obrazli nomlanishida jamoaviy ijodiylik o‘zaro hamkorlikdagi nomlash faoliyatiga asoslanadi. Jamoaviy ijodiylik biror kishilar jamoasining topoobyektga bo‘lgan munosabati hamda topoobyektning ichki va tashqi xususiyatlari asnosida obyektning obrazli nomlanishidir. Bunda jamoaning diqqat markazi obyektning ichki va tashqi xususiyatlariga yo‘nalgan bo‘lib, uning mohiyatida aynan obyektning kelajakda nomga bo‘lgan munosabatlarning shakllanishiga bo‘lgan qiziqish, undagi jarangdorlik va nomning ulug‘vorligi turadi. Bunday nomlanishlar asosan ko‘cha nomlarida ko‘proq ko‘zga tashlanadi. Obyektning nomlashda jamoa oldida bir necha nomlarning tanlovi yuzaga keladi. Masalan, Farg‘ona shahri Tarannum ko‘chasiga nom berilishida jamoaviylikka asoslanilgan. Ko‘chada istiqomat qiluvchilar oldida sumbula va tarannum nomlari tanlovi yuzaga kelgan va jamoaviylik asosida Tarannum deya nomlandi. Albatta, bunda holatda yuqorida aytilgani kabi nomning jarangdorligi va ulug‘vorligi birinchi o‘ringa chiqqan. Bu kabi jamoaviy nomlashlar qishloq nomlarida ham uchraydi.

Yangiobod qishlog‘i (Farg‘ona v. Yozyovon t.) tumanning cho‘l zonasida joylashgan bo‘lib, yangi obod qilingan joy hisoblanadi. Bu topoobyekt yangi obod qilinganligi sababli Yangiobod deya nomlangan.

Solijonobod qishlog‘i (Farg‘ona v. Qo‘sh tepa t.) obod qilinishda Solijon ismli shaxsning roli katta bo‘lgan. Qishloq nomi uni obod qilgan shaxs sharafiga Solijonobod deya nomlangan.

Yuqordagi misollardan ko‘rinib turibdiki, jamoaviy nomlashda jamoaning hamkorligi, jamoa a‘zolarining o‘zaro munosabatlari aks etgan.

Tarixga nazar solar ekanmiz qadim zamonlarda xalqlarning turli hududlarga ko‘chib o‘tishlarida yangi yerning ichki va tashqi xususiyatlari doimo diqqat markazida bo‘lib kelgan. Ayniqsa, turkiy xalqlarning Oltoy o‘lkasidan turli hududlarga hududlarga ko‘chib o‘tishlari natijasida yangi hududlar informativ ko‘rinishda obrazli nomlanilgan. Turli xalqlarning Yevropa hududigacha ko‘chib borganligi, Oltoy o‘lkasidan turkiy xalqlarning Shimoliy Amerikaning Alyaska

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

shtatiga Bering bo‘g‘ozi orqali ko‘chib o‘tish imkoniyati bo‘lganligi katta taxminga ega. Shimoliy Amerika qit‘asining nomlanishida o‘ziga xos obrazlilik majud bo‘lib, bunday obrazlilik barcha xalqlarda universal bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Taxminlarga ko‘ra Skandinaviyada yashovchi german qabilalaridan biri vikinglar dengizda suzish, jangovar qobiliyati kuchli xalq hisoblangan. Ular dengiz orqali o‘z kemalarida turli hududlarni egallab oladilar. Taxminlarga ko‘ra, vikinglar o‘z kemalarida Shimoliy Amerika hududlarigacha yetib borganlar.

Hoirgi kunda ko‘pchilik Amerika nomi u yerga bir necha marotaba sayohat qilgan va Yangi dunyoning xaritasini tuzgan italyan geografi Amerigo Vespuchchi sharafiga qo‘yilgan deb ishonadi. Ba‘zilar bu yer o‘z nomini vikinglardan olgan deb ishonadilar. Norveg tilida *Omme-rikke* “olis o‘lka” degan ma‘noni anglatadi [Joy Masoff, 2000:10]. Ya‘ni, *omme rikke* > *ommerikke* > *omerike* > *omerika* > *amerika* > *America*. Bundan ko‘rinib turibdiki, Amerika toponimining o‘zi ham obrazli nom sifatida informativlik xususiyati bilan jamoaviy tarzda ma‘lum bir qabila a‘zolari tomonidan nomlangan. Bizningcha, Amerika toponimi vikinglar tilidan kelib chiqqanligi ehtimoli katta.

Alyaskada hozirga qadar turkiy xalqlar yashashi hammaga ma‘lum. Rossiya Federatsiyasida ham, AQShning Alyaska shtatida ham eskimoslar yashaydilar. Bundan ko‘rinib turibdiki, ikki qit‘a o‘rtasida xalqlarning aloqasi mavjud bo‘lgan. Chunki Bering bo‘g‘ozi kengligi atigi 80 kilometr atrofida bo‘lib, qayiqda suzib o‘tish yoki bo‘lmasam qish faslida suvning muzlashi natijasida piyoda o‘tish imkoniyati mavjud bo‘lgan. Alyaska so‘zining kelib chiqishini ko‘rib chiqsak, quyidagicha natijaga erishishimiz mumkin bo‘ladi. *Alaska* > *Alas ka* > *alas alka* > *alis olka* > *olis o‘lka*. Bundan ma‘lum bo‘ladiki, Alyaska toponimining ma‘nosi turkiy “olis o‘lka” bo‘lib chiqmoqda.

Obrazli nomlanishlarda bunday universalialar har bir xalqning topoobyektlarni inson yoki hayvon shakli aks etishi, ularni tashqi xususiyatlari natijasida jamoaviy tarzda nomlashga sabab bo‘ladi. Odatda bunda obrazli nomlanishlar biror xalq yoki odamlar guruhining bir joydan ikkini joyga ko‘chishida yuzaga keladi. O‘zbekiston Respublikasi hududida bir obyektidan ikkinchi obyektga ko‘chgan va o‘troqlashib qolgan jamoalar tomonidan avvalgi yashagan joylari nomini migratsiyalash orqali “obod” qo‘shimchasini qo‘shish bilan joyga nom berganlar. Bunday topoformantning topoasoslarga qo‘shilish holati Respublikamiz hududida ko‘p uchraydi.

So‘xobod qishlog‘i (Far. v. Rishton t.): *so‘x+obod* > *So‘xobod*. Bu qishloqning aholisi tojik tilli bo‘lib, Farg‘ona viloyatining So‘x tumanidan ko‘chib o‘tgan. Bir vaqtning o‘zida bunday toponimlarni toponim-migrantlar deb ham atash mumkin.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Bundan tashqari joy nomlarini jamoavi nomlanishida aholining shu joda mashg‘ul bo‘lgan kasb-hunari ham muhim rol o‘naydi.

Dehqonobod qishlog‘i (Farg‘ona v. Quva t.): *dehqon+obod* > *Dehqonobod*. Qishloq nomi shu yerdagi aholining dehqonchilik bilan shug‘ullanishi natijasida qo‘riq yerlar obod qilingan. Xulosa qiladigan bo‘lsak, joy nomida “dehqon” so‘zi topoasos, “obod” so‘zi topoformant vazifasini o‘tagan.

Kuhnaobod (Navoi v. Konimex t.). Ko‘hna so‘zi fors-tojikcha “eski” ma’nosini anglatadi, obod topoformanti qo‘shilgan holda “eski qishloq” ma’nosini anglatadi.

“Obod” affiksoidli bunday joy nomlari kuchli informativ xususitga ega bo‘lib, nomlanishda topoobyektning ichki belgisi asosiy o‘rinni egallaydi, shu joy aholisi va topoobyekt haqida to‘liq ma’lumot bera oladi.

Bundan tashqari obyektning floristik xususiyatlari, rang-tusi yoki landshaftiga asoslangan holda *-tepa, -tagi, ming-, chor-, qo‘sh-* topoformantini topoasosga qo‘shgan holda nomlanishlar jamoaviy ijodiylikning yaqqol namunasi deb hisoblash mumkin.

Chinor qishlog‘i (Far. vil. O‘zbekiston t.). Bizningcha, Chinor qishlog‘i nomi avval Chinortepa bo‘lgan, chunki bu qishloq tepalik bo‘lib, Chinortepa, ya’ni chinorli tepa bo‘lishi kerak. Vaqt o‘tishi bilan toponim tarkibidagi tepa so‘zi tushib qolgan: *chinorli tepa* > *chinortepa* > *chinor* > **Chinor**. Natijada joy nomi qisqarishga uchrab **Chinor** shaklida bizgacha yetib kelgan.

“Chinor” so‘zi bilan hosil qilingan toponimlar Respublikamiz hududida ko‘plab uchraydi, masalan, Chinor (Surxondaryo vil. Oltinsoy t., Toshkent vil. Bo‘stonliq t., Ohangaron t.), Chinortagi (Farg‘ona vil. Oltiariq t.), Chorchinor (Marg‘ilon sh.), Qo‘shchinor (Samarqand vil. Pstdarg‘om t.), Chinortepa (Samarqand vil. Ishtixon t.).

Qoratepa qishlog‘i (Farg‘ona vil. Yozyovon t.). Toponim ikki qismdan iborat: **qora** - topoasos, **tepa** – topoformant, ya’ni qora tepa → qoratepa → **Qoratepa**. Qishloqda sho‘rolar davriga qadar tepalik bo‘lgan. Hozirda bunday tepalikning qoldiqlari mavjud emas. Xalq etimologiyasiga ko‘ra qishloq tomonga kelayotgan karvonlar tepalikni ko‘rsatib, “Qara tepa” degan ekan, keyinchalik Qoratepa shaklida nomlanib qolgan ekan. Bizningcha, tepalikning uzoqdan qorayib ko‘rinishiga nisbat berilgan holda **Qoratepa** deya nomlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. McCartne, Eugene Stock, A.B. Figurative uses of animal names in Latin and their application to military devices. A thesis presented to the Faculty of the Department of Philosophy of the University of Pennsylvania, in Partial

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

- Fulfilment of the Requirements for the Degree of Doctor of Philosophy. Pennsylvania – 1912. at forgottenbooks.com.
2. Joy Masoff. Chronicle Of America: Colonial Times, 1600-1700. Mexico. 2000. 48 pages.
 3. Hamilton, Rachael Louise. Colour in English: From Metonymy to Metaphor. Submitted to the University of Glasgow for the degree of Doctor of Philosophy. College of Arts, University of Glasgow. May 2016. at <http://theses.gla.ac.uk/7353/>
 4. Kondakova Irina Aleksandrovna. Образные средства, содержащие топонимы, в английском языке. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. Киров – 2004.
 5. Rut, M. E. Образная онимастика в русском языке: ономиологический аспект. Доктoрская диссертация. Екатеринбург-1994 г.
 6. Sharofutdinova Ra'noxon. Ijod tushunchasi faoliyatni rivojlantirish mexanizmi // O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. 19-son. May – 2023. 854-861-betlar.
 7. Homidiy H., Abdullayeva Sh., Ibrohimov S. Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati. Ikkinchi nashr. “O‘qituvchi nashriyoti”, Toshkent - 1970-y. 300 sahifa.